

**Mavzu: O'pkali mollyuskalar hayot tarzi va
ichki tuzilishi**

Andijon davlat pedagogika instituti

Tabiiy fanlar fakulteti biologiya yo`nalishi

1-bosqich talabasi

Xamidillayeva Muxlisa Xayrullo qizi

Annotatsiya: o'pkali mollyuskalar har xil hayot tarzida yashash xususiyatiga ega. ularning nerv hujayrasi, o'pkasi, ayirish organi, tana bo'shlig'i, tana bo'limlari yuragi paypaslagichlari mavjud.

Kalit so'zlar: o'pkali mollyuska, bilateral simmetriya, assimetrik, selom qobiq, spermatomorf, gelmintoz, lakun, sinus, tok shillig'i.

Mollyuskalar xilma xil tuzilgan eng qadimgi hayvonlar guruhi hisoblanadi. Ular quyidagi xususiyatlari bilan boshqa hayvonlar ajralib turadi. Ko'pchilik turlari bilateral simmetriyalik hayvonlar. Ba'zilarida organlarning joylashuvi o'zgarib assimetrik shaklga kiradi. Ko'pchiligidan tanasi bo'g'imlarga bo'linmagan, ammo tuban vakillarida metamerlik tuzulishga xos bo'lgan belgilarni ko'rish mumkin. Tanasi bosh, gavda, oyoq deb ataluvchi uch bolimdan iborat. Faqat ikki tavaqalilarida bosh bolmaydi. Qorin devoridan hosil bo'lgan o'simtalar orqali harakatlanadi, ular ikkilamchi tana bo'shliqlik hayvonlar bo'lib, selom qobig'i yurakoldi xaltasi perikardiy va jinsiy bezlari boshlig'idan iborat. Mantiya bilan tanasi oralig'ida mantiya bo'shlig'i bo'lib unda Jabra va ayrim sezgi organlari joylashgan. Ayirish, orqa chiqaruv va jinsiy bezlarning teshigi ham shu bo'shliqqa ochiladi. Bir qancha mollyuskalarning chig'anogi tarixiy taraqqiyot davrida yo'qolib ketgan.

O'pkali mollyuskalar. Qorinoyoqli mollyuskalar kenja sinfi. Chig'anog'ining kattaligi 0,5- 2,0mm keladi. Ularning chig'anogi teshigi atrofida tishsimon o'siqchalar bo'lib chig'anoq ichiga tortiluvchi oyoqlari chig'anoqqa tortilganda o'simtalar mantiya chetidagi yumshoq toqimaga tegib undan shilimshiq modda

ajralib chiqa boshlaydi. Shilimshiq modda havoda qotib, chig`anoq teshigini berkitadi. bu esa mollyuskalarning hayot faoliyatini taminlovchi muhim hayotiy funksiya hisoblanadi. Mollyuskada Jabra bo`lmaganligi sababli ular o`pka orqali nafas oladi va bu tip yonbosh nerflilar va chig`anoqlilar kenja tipiga ajratiladi. Mantiya bo`shlig`i yuzasi o`pka vazifasini bajaradi. O`troqko`zlilar va poyachali ko`zlilar deb ataluvchi bu ikki turkumning 100 dan ortiq oilasi 35000 ga yaqin turi borligi aniqlangan. Quruqlik o`pkali mollyuskalar ohak po`choq bilan o`raglan tuxumlarini maxsus joyga, suv muhitida yashovchi o`pkali mollyuskalar esa maxsus kapsula bilan o`raglan tuxumlarini suv o`simliklari yoki toshlar ostiga yopishtirib qoyadi. Mollyuskalarning ko`pchiligi spermatomorf ba`zilari esa tirik tug`ib ko`payadi va ular germofrodit organizmlar hisoblanadi. Quruqlikda yashaydi va ba`zi turlari ikkilamchi tarzda suv muhitida yashashga o`tgan. Bu organizmlar metamorfozsiz rivojlanadi. Mollyuskalar tipiga mansub bo`lgan o`pkali mollyuskalar asosan o`simlikxo`r ba`zi vakillari esa yirtqich organizmlar hisoblanadi. Suv muhitida yashashga moslashgan turlari baliqlar ularning oziqlari va har xil mayda plankton organizmlar bilan oziqlanadi, quruqlik muhitida yashashga moslashgan turlari esa o`simlik barglari va maysalar bilan oziqlanib atrof muhitga katta zarar keltiradi. Ba`zi vakillari gelmintozlarni tarqatadi. Lekin bular orasidan ham istemolga yaroqli turlari uchraydi. Bularga tok shilligini olsak boladi. Qon aylanish sistemasi ochiq bo`lib, qoni tomirlarda oqishi bilan birgalikda lakunlar va sinuslar deb ataladigan naylar orqali ham o`tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. "Umurtqasizlar zoologiyasi" O.Mavlonov, X.Eshova
2. ARXIV.UZ SAYTI
3. 7-SINF ZOOLOGIYA DARSLIGI.